


## Qorachiqning reflektor yoyi

Qorachiqning yorug'likka reaksiyasi *n.opticus* tizimi bilan bog'liq (6.8-rasm). Chunki ko'ruv nervi va ko'ruv trakti tarkibida qorachiq reflektor yoyining afferent qismi o'tadi. Ko'rish funksiyasiga bu yo'llarning aloqasi yo'q. Bu yo'llar faqat qorachiqlar torayishi uchun mas'ul.



6.8-rasm. Qorachiqning yorug'likka reflektor yoyi: 1 - retina; 2-11 nerv; 3 - chiasma opticum; 4 - interneuron; 5 - Eding-er-Vestfalyadrosi; 6-III nerv; 7 - gangl. ciliare; 8 - m.shpinterpupillae; 9 - miya oyog'i.

**1. Reflektor yoyning afferent qismi.** Reflektor yoyining se-zuvchi qismi retinadagi tayoqcha va kolbachalaridan boshlanadi. Uning avtonom funksiyaga ega markazga intiluvchi tolalari *n. opticus* tarkibida xiazmadan qisman kesishib o'tadi. Bunda faqat ichki tolalar kesishadi. *Tractus opticus* tarkibidagi ushbu tolalar *colliculis superiorda* tugaydi. Bu yerda oraliq neyron yotadi. Uning aksonlari qorachiqdan kelgan impulslarni shu yerda joylashgan Edinger-Vestfal yadrosiga o'tkazadi. Oraliq neyron aksonlari ham o'zi tomondagi, ham qarama-qarshi tomondagi Edinger-Vestfal yadrosiga boradi. Shu

bois ham bir tomondagi qorachiqqa tushgan yorug'likka ikkinchi tomondagi qorachiq ham qisqarib javob beradi.

**2. Reflektor yoyning efferent qismi.** Reflektor yoyning harakat qismi Edinger-Vestfal yadrosidan boshlanadi (1-neyron). Ushbu yadro *n. oculomotorius* ning juft parasimpatik yadrosi hisoblanadi. Undan boshlangan efferent tolalar III nerv tarkibida siliar tugunga (*ganlion ciliare*) borib tugaydi. *Ganlion ciliare* da 2-neyron yotadi va uning tolalari qorachiqni toraytiruvchi muskulga (*m.shpincter pupillae*) boradi. Shunday qilib, qorachiqning yorug'likka reaksiyasi bilan bog'liq reflektor yoyning afferent qismi II nerv, efferent qismi esa III nerv tarkibida o'tadi.

**Manba:** © Z. Ibodullayev. Nevrologiya. Qo`llanma. Toshkent, 2017., 404 b.

© Z. Ibodullayev. Umumiy nevrologiya. Darslik. Toshkent, 2021., 312 b.

© Ibodullayev ensiklopediyasi © [www.asab.uz](http://www.asab.uz)

